



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№8(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 318 sahifa,
3-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Sun'iy intellekt muhitida o'sib kelayotgan Alfa avlodining shaxsiy va psixik rivojlanishi	10
Jo'rayeva Dilfuza Abdug'aniyevna	
Teng yonli uchburchak xossalari va kesmaning o'rta perpendikulyari xossalariidan foydalangan holda masalalar yechish	13
Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li	
Xiva xonligining siyosiy boshqaruv modeli: Buxoro va Qo'qon xonliklari bilan qiyosiy tahlili.....	17
Mutallibjonov Boburmirzo	
Boshlang'ich sinfda informatika fanini o'qitish metodikasi	26
Nosirova Feruza Baxadir qizi	
Funksional savodxonlik asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini professional rivojlantirishning strukturaviy-faoliyatli modeli.....	30
Gafurova Mahfuza Abbosovna	
Mutafakkirlar asarlarida bolalar faolligini shakllantirishda o'yinlardan foydalanishning yoritilishi	35
Ravshanova Uldona Narziboyevna	
Ijtimoiy-madaniy qadriyatlar variatsiyasi sharoitida talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish mazmuni	39
Vorisova Barnoxon Olimjon qizi	
Huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya integratsiyasi orqali yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish	43
Habibjonov Izzatbek Dilshodjon o'g'li	
Bo'lajak o'qituvchilarning tanqidiy va refleksiv tafakkurini rivojlantirishda antfragil yondashuvning o'rni.....	51
G'ulomjonova Ziyodaxon A'zamjon qizi	
Badiy adabiyotning yoshlar tarbiyasidagi didaktik imkoniyatlari	57
Irisboyeva Xotiraxon Utbasarovna	
Talabalarining o'quv amaliyoti jarayonida kasbiy mobilligini rivojlantirishda dual ta'limga asoslangan metodikani takomillashtirish	61
G'ofurov To'liqinjon	
Didactic Opportunities of Content and Language Integrated Learning (CLIL) Technology in English Language Teaching	67
Ismailova Aziza Dilshodovna	
Фольклорные источники в историко-географическом изучении памятников Устюрта.....	72
Канаатов Есимкан	
Xorijiy davlatlar tajribasida o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish amaliyoti.....	76
Abdullayev Amirulla Xazratovich	
Algoritmik faollikni rivojlantirishning zamonaviy metodik yondashuvi	81
Pardayeva Kamola Sultonovna	
Sun'iy intellekt va startap ekotizimi asosida talabalarining tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish	86
Imomaliyev Quvvat Choriyevich	
Maktab ta'limida o'qitish sifatini baholashning ko'p tarmoqli raqamli-diyagnostik tizimini joriy etish va boshqarish	91
Nurmetov Tursunbek Kenjayevich	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	96
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining malakaviy va pedagogik amaliyotlari uzviyligini ta'minlashning metodik modeli	99
Mardonov Maqsudbek Maxmudovich	
Nogironligi bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatishning nazariy-metodologik asoslari	103
Umarova Umidaxon Ibaydullayevna	



Chizmachilik darslarida animatsiyali modellarni qo'llashning pedagogik asoslari	108
<i>Xo'janiyozov Shokir Rustamovich</i>	
Fanlararo aloqadorlik asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish metodikasi va uning eksperimental samaradorligi	114
<i>Isroilova E'zoza Akmal qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida ingliz tilini o'qitishda veb-kvestlar va raqamli keyslarni samarali qo'llash usullari	119
<i>Shermatova Ra'no O'ktam qizi, Baxodirova Gulnoz Kamalovna</i>	
Xalq og'zaki ijodi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini takomillashtirish texnologiyalari	124
<i>Abduraximova Muxabbat Allayevna</i>	
Bo'lajak fizika o'qituvchilarini nanotexnologiya sohasidagi bilimlarni taqdim etishga va o'qitishga tayyorlash metodikasi	129
<i>Sottarov Abduvali Umirqulovich</i>	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning raqamli tafakkurini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	133
<i>Nuraliyeva Feruza Abdusalim qizi</i>	
Emotsional intellekt va raqamli kommunikatsiya: yoshlar psixologiyasida zamonaviy tendensiyalar	137
<i>Qahharov Nuriddin Sherbek o'g'li</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda "o'quv burnout" (o'qishga nisbatan charchash va sovish) holatining oldini olishda motivatsion pedagogik texnologiyalar	142
<i>Babajanova Gulmira Muratbayevna</i>	
Linguopragmatic Errors in Artificial Intelligence-Generated Translations	147
<i>Aytmuxamedova Durdona Jasur qizi</i>	
Клинические особенности аллергодерматозов у лиц, проживающих в Ташкентской области	153
<i>Абдуллаева Ф. Б., Саипова Н. С.</i>	
Tyutorlik faoliyatining pedagogik ahamiyati	160
<i>Ashirova Gulnora Xayrullayevna</i>	
Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbga yo'naltirish metodikasini takomillashtirish	164
<i>Nurmuratova Iroda Nuriddinovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashda diqqat yetishmasligi va giperfaollik: mnemotexnik korreksiya	169
<i>Egamberdiyeva Xuriyat Egamberdiyevna, Kaxxarova Ozoda Abdimo'minovna</i>	
The Historical Development of Translation	173
<i>Sharopova Gulnoza Odil qizi</i>	
Integratsiya jarayonlarini samarali boshqarishga yo'naltirilgan metodik tizim	176
<i>L. T. Xudaybergenova</i>	
Multimodal matnlarni tanlash va dalillarga asoslangan o'quv topshiriqlari metodikasini ishlab chiqish	180
<i>G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi</i>	
Bo'lajak tibbiyot xodimlarining diagnostik kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'rni: ilmiy adabiyotlar sharhi	186
<i>Xalimova S. A.</i>	
The Role and Opportunities of Artificial Intelligence (AI) in the Management of Educational Institutions	191
<i>Abduqahorova Lobar Oybekovna</i>	
Malaka oshirish jarayonida maktab direktorlarining mediakompetentligini rivojlantirishning tashkiliy-boshqaruv mexanizmi	197
<i>Xidirova Maftuna Ilhom qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya berishda STEAM va an'anaviy usullarning qiyosiy tahlili	205
<i>Boltayeva Nasiba Ilhom qizi</i>	

Kasb-hunar ta'limida elektromobillar va robototexnika yo'nalishlarini rivojlantirish: xalqaro hamkorlik tajribasi va "2+1" dual ta'lim modeli.....	209
<i>Dushanov Nuriddin Qo'ldoshovich, Suvonov Murodjon Abdurahmon o'g'li, Ibragimova Dinara Rustam qizi, Karimova Oygul Ro'ziyevna, Avliyoqulov Muxammad Mustafoyevich</i>	
Multimodal matnlarni tanlash va dalillarga asoslangan o'quv topshiriqlarining metodikasini ishlab chiqish ...	212
<i>G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda "ijodiy faoliyat" va "kreativlik" konseptlarining nazariy-metodologik interpretatsiyasi...	218
<i>Komila Aytmuratova</i>	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi asosida rivojlantirishga doir mashqlar tipologiyasining samaradorligi.....	222
<i>Maxmudova Feruza Salimjonovna</i>	
O'zbek va rus nasrida oilaviy munosabatlarning badiiy-psixologik talqini	227
<i>Qurbonova Malika Toxir qizi</i>	
O'quv-biluv kompetensiyasining nazariy asoslari va zamonaviy pedagogik yondashuvlar	230
<i>Saydaxmedova Barno Batirovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matematik tayyorgarligi tarkibi: TIMSS va PISA xalqaro baholash dasturlari asosidagi nazariy tahlil	235
<i>Abdusattarova Zaynab</i>	
Fizikani o'qitishda barqaror taraqqiyot tushunchalarini rivojlantirish: O'zbekiston kontekstida adabiyotlar tahlili.....	243
<i>Avazova Oltin</i>	
Futbolda 11–12 yoshli darvozabonlarni texnik-taktik jihatdan tayyorlashda maxsus mashqlarning ahamiyati	247
<i>Ibragimov Qosimbek Isroil o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanni o'qitish jarayonida sun'iy intellekt yordamida foydalanib nazariy bilimlarni hayotga tatbiq qilib o'rganish metodlari	253
<i>Jo'layeva Munira Choriyevna</i>	
Creativity-Oriented Language Teaching in Karakalpak Folk Pedagogy	256
<i>Khodzhanizayeva Aygul Aytmuratovna</i>	
Bo'lajak pedagoglarda estetik kompetentlikni rivojlantirishning metodik asoslari.....	264
<i>Saidova Dilorom Erkinovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik muammolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	269
<i>Farhodova Sevara Qo'ziboy qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarida tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari.....	274
<i>Norkulova Jasmina Sodikovna</i>	
Umumta'lim maktablarida matematik kechalar orqali o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish samaradorligi.....	277
<i>Saytniyozov Adham Annamuhomet o'g'li</i>	
Tibbiy va pedagogik ta'lim jarayonida "Case Study" metodini qo'llash orqali talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish	282
<i>Shaymatova Azizaxon Rustambekovna</i>	
Dutor ijrochiligining amaliy-texnik jihatlariga e'tibor qaratish va ushbu jarayonni rivojlantirish	286
<i>Shodiyeva Shahinabonu Shoirjon qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik texnikani shakllantirish texnologiyalari	293
<i>Turimbetova Sveta Muhammedaliyevna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlik menejmentini takomillashtirishda direktor o'rinbosarining roli	297
<i>Xolnazarova Shaxnoza Baxodir qizi</i>	
Адаптивная геймификация в школьном обучении физике	304
<i>Индира Бахадуровна Ерлепесова</i>	
Bo'lajak pedagoglarda qadriyatlar tizimining shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar	309
<i>Taylanova Sh. Z.</i>	



UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MATEMATIK KECHALAR ORQALI O'QUVCHILARNING MANTIQUIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI

Saytniyozov Adham Annamuhammet o'g'li

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida matematik kechalarni tashkil etish orqali o'quvchilarning mantiqiy tafakkuri, mustaqil fikrlashi va matematika faniga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqot davomida matematik kechalarning ta'lim jarayonidagi o'rni, ularni tashkil etish metodlari hamda o'quvchilarning bilim va kompetensiyalarini rivojlantirishdagi samaradorligi tahlil qilindi. Shuningdek, matematik viktorinalar, mantiqiy o'yinlar, sahnaviy chiqishlar va interfaol metodlardan foydalanishning afzalliklari ko'rsatib berildi. Olingan natijalar matematik kechalar o'quvchilarning fan bo'yicha faolligini oshirish, jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirish hamda ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatdi. Tadqiqot yakunida umumta'lim maktablarida matematik kechalarni muntazam tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: matematik kecha, matematika ta'limi, mantiqiy tafakkur, interfaol metodlar, viktorina, sinfdan tashqari mashg'ulot, kompetensiya, pedagogik texnologiya.

Abstract: This article examines the effectiveness of mathematical evenings in developing students' logical thinking, independent reasoning, and interest in mathematics in general secondary schools. The study analyzes the pedagogical potential of mathematical evenings, methods of organizing them, and the impact of interactive approaches on educational effectiveness. The results of the experimental work indicate that mathematical evenings contribute to improving students' academic achievement, logical reasoning, teamwork, and motivation toward mathematics. Based on the findings, methodological recommendations for organizing mathematical evenings in secondary schools are proposed.

Key words: mathematical evening, mathematics education, logical thinking, interactive methods, quiz, extracurricular activities, pedagogical technology, competency.

Аннотация: В данной статье исследуется эффективность математических вечеров в развитии логического мышления, самостоятельного мышления и интереса учащихся к математике в общеобразовательных школах. Проанализированы педагогические возможности математических вечеров, методы их организации и влияние интерактивных технологий на качество обучения. Результаты исследования показали, что математические вечера способствуют повышению уровня знаний учащихся, развитию логического мышления, навыков командной работы и познавательной активности. По итогам исследования предложены методические рекомендации по эффективной организации математических вечеров в общеобразовательных школах.

Ключевые слова: математический вечер, математическое образование, логическое мышление, интерактивные методы, викторина, внеклассная работа, педагогические технологии, компетентность.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillash-tirish jarayonida o'quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini oshirish, balki ularning mantiqiy tafakkuri, mustaqil fikrlashi, ijodkorligi hamda muammoli vaziyatlarni hal etish kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda matematika fani alohida o'rin egallaydi, chunki u o'quv-chilarda tahliliy fikrlash, xulosa chiqarish va amaliy qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

An'anaviy dars mashg'ulotlari o'quvchilarning matematik bilimlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etsa-da, ular har doim ham o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini yuqori darajada ta'minlay olmaydi. Shu sababli sinfdan tashqari mashg'ulotlar, xususan, matematik kechalar, viktorinalar, intellektual bellashuvlar va mantiqiy o'yinlarni tashkil etish bugungi ta'lim amaliyotida muhim pedagogik vosita sifatida e'tirof etilmoqda. Bunday tadbirlar o'quvchilarga nazariy bilimlarini qiziqarli va hayotiy vaziyatlarda qo'llash imkonini yaratadi hamda ularning matematika faniga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi.



Matematik kechalar o'quvchilarning bilimini mustahkamlash bilan bir qatorda ularning jamoada ishlash, o'z fikrini asoslab himoya qilish, tezkor qaror qabul qilish va ijodiy yondashuv kabi muhim kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur tadbirlar davomida sahnaviy chiqishlar, matematik o'yinlar, viktorinalar, topishmoqlar va qiziqarli savol-javoblardan foydalanish o'quvchilarning bilish faolligini oshirishda samarali vosita hisoblanadi. So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar va interfaol pedagogik metodlarning rivojlanishi matematik kechalarni tashkil etish mazmunini ham yangi bosqichga olib chiqmoqda. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, elektron taqdimotlar, onlayn viktorinalar va raqamli ta'lim platformalarini qo'llash o'quvchilarning darsdan tashqari faoliyatga bo'lgan qiziqishini oshirish bilan birga, ularning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Shu nuqtai nazardan, matematik kechalarning o'quvchilarning mantiqiy tafakkuri va o'quv motivatsiyasiga ta'sirini ilmiy jihatdan o'rganish, ularning samaradorligini baholash hamda ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi - umumta'lim maktablarida matematik kechalarni tashkil etish orqali o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish samaradorligini aniqlash va ushbu jarayonni takomillashtirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari:

- matematik kechalarning ta'lim jarayonidagi pedagogik ahamiyatini tahlil qilish;
- matematik kechalarni tashkil etish metodikasini o'rganish;
- matematik kechalarning o'quvchilarning mantiqiy tafakkuri va o'quv motivatsiyasiga ta'sirini aniqlash;
- tajriba-sinov natijalarini tahlil qilish va baholash;
- matematik kechalarni samarali tashkil etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Umumta'lim maktablarida matematikani o'qitishda sinfdan tashqari mashg'ulotlar, xususan, matematik kechalar o'quvchilarning mantiqiy tafakkuri, mustaqil fikrlashi va fanga bo'lgan qiziqishini rivojlantirishning muhim vositalaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

G. Polya muammoli masalalarni yechish jarayonida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning metodik asoslarini ishlab chiqqan bo'lsa, NCTM (National Council of Teachers of Mathematics) tavsiyalarida o'quvchilarni faol o'quv jarayoniga jalb etish, hamkorlikda ishlash va matematik muloqotni rivojlantirish muhimligi ta'kidlangan.

O'zbek olimlaridan O'. Q. Tolipov, M. Usmonboyeva, R. J. Ishmuhamedov va A. A. Abduqodirovlarning tadqiqotlarida interfaol metodlar hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning bilish faolligi va kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali yondashuv sifatida baholangan.

Shuningdek, matematik kechalar va viktorinalarni tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar mazkur tadbirlarning o'quvchilarda mantiqiy tafakkur, ijodkorlik va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishdagi pedagogik ahamiyatini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot umumta'lim maktablarida matematik kechalar orqali o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish samaradorligini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy metodlardan kompleks foydalanildi.

Tadqiqot obyekti sifatida umumta'lim maktablarida tashkil etiladigan sinfdan tashqari matematik mashg'ulotlar, xususan, matematik kechalar tanlandi. Mazkur tadbirlar o'quvchilarning matematika faniga bo'lgan qiziqishini oshirish, nazariy bilimlarini mustahkamlash hamda mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik faoliyat sifatida qaraldi.

Tadqiqot predmeti matematik kechalarni tashkil etish metodikasi, ularda qo'llaniladigan interfaol usullar, mantiqiy topshiriqlar, viktorinalar va sahnaviy chiqishlarning o'quvchilarning bilish faolligi hamda mantiqiy tafakkuriga ta'siridan iborat bo'ldi.

Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. **Pedagogik tahlil** - matematik kechalarni tashkil etishga oid ilmiy-metodik adabiyotlar hamda uslubiy qo'llanmalar tahlil qilindi.
2. **Pedagogik kuzatish** - matematik kechalar davomida o'quvchilarning faolligi, jamoada ishlashi va mantiqiy topshiriqlarni bajarish jarayoni kuzatildi.



3. **Suhbat va so'rovnom** - o'quvchilar hamda matematika o'qituvchilarining matematik kechalarga munosabati o'rganildi.
4. **Pedagogik tajriba-sinov** - matematik kechalar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarning o'quvchilarning bilimiga va mantiqiy tafakkuriga ta'siri baholandi.
5. **Matematik-statistik tahlil** - olingan natijalar foiz ko'rsatkichlari va taqqoslash usullari yordamida tahlil qilindi.

Mazkur metodlardan foydalanish tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlash va matematik kechalarning ta'lim samaradorligiga ta'sirini har tomonlama baholash imkonini berdi. Bu yondashuvlar uslubiy qo'llanmada tavsiya etilgan ilmiy-pedagogik metodlar bilan uyg'unlashadi.

Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi:

1. **Tayyyorgarlik bosqichi** - ilmiy adabiyotlar va uslubiy qo'llanmalar tahlil qilindi, matematik kecha ssenariylari ishlab chiqildi va tadqiqot dasturi tuzildi.
2. **Amaliy bosqich** - o'quvchilar ishtirokida matematik kechalar tashkil etilib, viktorinalar, mantiqiy masalalar, sahnaviy chiqishlar va guruhli topshiriqlar o'tkazildi.
3. **Yakuniy bosqich** - olingan natijalar tahlil qilinib, matematik kechalarning o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishdagi samaradorligi baholandi hamda metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Matematik kechalarni tashkil etishda tadbir mavzusini tanlash, ssenariy tuzish, jamoalarni shakllantirish, bellashuvlar, baholash va taqdirlash bosqichlariga alohida e'tibor qaratildi. Ushbu bosqichlar qo'llanmada tavsiya etilgan metodik ketma-ketlik asosida tashkil etildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot Surxondaryo viloyati Denov tumani 23-maktabda 5-8-sinf o'quvchilari ishtirokida olib borildi. Tadqiqotda jami 80 nafar o'quvchi qatnashdi. Tajriba davomida matematik kechalar tashkil etilib, ularning tarkibiga matematik viktorinalar, yozma topshiriqlar, mantiqiy masalalar va jamoaviy bellashuvlar kiritildi. Tadbirlarni tashkil etishda o'quvchilarning faol ishtirok etishi, mustaqil fikrlashi va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish asosiy mezon sifatida belgilandi.

Tajriba-sinov jarayonida o'quvchilarning matematik kechalardagi ishtiroki muntazam kuzatildi. Kuzatish natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quvchilar viktorinalar va mantiqiy topshiriqlarda katta qiziqish bilan qatnashdilar. Ayniqsa, guruhlar o'rtasidagi bellashuvlar o'quvchilarning o'zaro hamkorlik qilish, fikr almashish va muammolarni birgalikda hal etish ko'nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Tadqiqot davomida bilimlarni baholash maqsadida yozma ishlar va test topshiriqlaridan foydalanildi. Olingan natijalar matematik kechalar o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo'llash, mantiqiy fikrlash hamda tezkor qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita ekanligini ko'rsatdi. Tadbir yakunida o'quvchilarning aksariyati matematika faniga bo'lgan qiziqishi ortganini va bunday tadbirlarning tez-tez tashkil etilishini istashlarini bildirdilar.

Kuzatishlar davomida quyidagi natijalar aniqlandi:

№	Baholash mezon	Kuzatilgan holat
1	 O'quvchilarning tadbirdagi ishtiroki	Faol
2	 Viktorinalarda qatnashish	Yuqori
3	 Mantiqiy topshiriqlarni bajarish	Yaxshi
4	 Jamoada ishlash ko'nikmasi	Rivojlandi
5	 Matematika faniga qiziqish	Ortgan kuzatildi
6	 Yozma ish va test natijalari	Ijobiy o'sish qayd etildi

1-rasm: Matematik kechalar bo'yicha kuzatish natijalari

Olingan natijalar matematik kechalarni muntazam tashkil etish o'quvchilarning bilish faolligini oshirish, matematika faniga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita ekanligini ko'rsatdi. Bu natijalar matematik kechalarning ta'lim jarayonidagi o'rni va metodik ahamiyati haqidagi qo'llanmadagi nazariy qarashlarni ham qo'llab-quvvatlaydi.

Tadqiqot natijalari matematik kechalar umumta'lim maktablari o'quvchilarining matematika faniga bo'lgan qiziqishini oshirish, mantiqiy tafakkurini rivojlantirish hamda jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda samarali pedagogik vosita ekanligini ko'rsatdi. Tajriba davomida o'tkazilgan matematik kechalar, viktorinalar va yozma topshiriqlar o'quvchilarning darsdagi faolligini oshirish bilan bir qatorda ularning mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini ham rivojlantirdi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, matematik kechalarda qo'llanilgan interfaol metodlar o'quvchilarning bilim olish jarayoniga faol jalb etilishiga xizmat qildi. Ayniqsa, guruhlar o'rtasidagi intellektual bellashuvlar o'quvchilarda sog'lom raqobat muhitini shakllantirdi, o'zaro hamkorlikni kuchaytirdi hamda kommunikativ kompetensiyalarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bu holat matematik kechalarning ta'lim jarayonidagi pedagogik ahamiyati haqidagi nazariy qarashlarni tasdiqlaydi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar matematik kechalar orqali o'quvchilar darsda egallagan nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog'lay olishini ko'rsatdi. Matematik viktorinalar va mantiqiy topshiriqlar o'quvchilarning tahliliy fikrlash, muammoni turli usullar bilan hal etish hamda tezkor qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirdi. Bu esa matematik kechalarning zamonaviy kompetensiyaviy ta'lim talablariga mos kelishini ko'rsatadi.

Shuningdek, tadqiqot davomida tadbirlarning puxta rejalashtirilishi, ssenariy asosida tashkil etilishi va interfaol metodlardan foydalanilishi yuqori natijalarga erishishda muhim omil bo'lganligi kuzatildi. Qo'llanmada tavsiya etilgan tayyorgarlik bosqichi, ssenariy tuzish, bellashuvlarni tashkil etish hamda baholash tizimidan foydalanish tadbirlarning samaradorligini oshirishga xizmat qildi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, matematik kechalarni muntazam ravishda tashkil etish o'quvchilarning matematika faniga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi, ularning intellektual salohiyatini yuzaga chiqaradi hamda dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlaydi. Shu sababli matematik kechalarni umumta'lim maktablarida fan oyliklari, to'garak mashg'ulotlari va boshqa tarbiyaviy tadbirlar doirasida tizimli ravishda o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, umumta'lim maktablarida matematik kechalarni tashkil etish o'quvchilarning matematika faniga bo'lgan qiziqishini oshirish, mantiqiy tafakkurini rivojlantirish hamda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Tadqiqot davomida tashkil etilgan matematik kechalar, viktorinalar va yozma topshiriqlar o'quvchilarning darsdagi faolligini oshirish, jamoada ishlash madaniyatini rivojlantirish va bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo'llash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari muallif tomonidan ishlab chiqilgan "Matematik kechalar va viktorinalar to'plami" uslubiy qo'llanmasida bayon etilgan nazariy va amaliy tavsiyalarni amaliyotda qo'llash samarali ekanligini tasdiqladi. Qo'llanmada tavsiya etilgan matematik kecha ssenariylari, viktorinalar, topishmoqlar, sahnaviy ko'rinishlar hamda interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning fanga bo'lgan motivatsiyasini oshirish va ularning intellektual salohiyatini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Tajriba-sinov ishlari Surxondaryo viloyati Denov tumani 23-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining 5-8-sinf o'quvchilari ishtirokida o'tkazilib, matematik kechalarni tizimli ravishda tashkil etish o'quvchilarning bilim faolligi, mantiqiy fikrlashi va fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi kuzatildi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- umumta'lim maktablarida matematik kechalarni har chorakda kamida bir marta tashkil etish;
- fan oyliklari doirasida uslubiy qo'llanmada tavsiya etilgan ssenariy va viktorinalardan foydalanish;
- matematik kechalarni tashkil etishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, multimedia vositalari va interfaol metodlardan keng foydalanish;
- iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirish maqsadida jamoaviy bellashuvlar hamda matematik musobaqalarni muntazam o'tkazish;
- o'qituvchilar uchun matematik kechalarni tashkil etishga oid metodik tavsiyalar va amaliy qo'llanmalarni yanada boyitish.



Xulosa qilib aytganda, “Matematik kechalar va viktorinalar to‘plami” uslubiy qo‘llanmasi umumta’lim maktablarida sinfdan tashqari ta’limni samarali tashkil etish, o‘quvchilarning matematik kompetensiyalarini rivojlantirish va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni amaliyotga joriy etishda muhim metodik manba bo‘lib xizmat qiladi. Qo‘llanmadan foydalanish matematik kechalarni mazmunli tashkil etish, o‘quvchilarning fanga qiziqishini oshirish hamda ta’lim sifatini yaxshilashga munosib hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sayitniyozov, A. A., & Sobirova, M. (2026). Matematik kechalar va viktorinalar to‘plami: O‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun qiziqarli va ijodiy tadbirlar ssenariylari. Denov: Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti nashriyoti.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2020). Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti. Toshkent.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019). O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent.
4. Avliyakov, N. X. (2021). Pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya.
5. Tolipov, O‘. Q., & Usmonboyeva, M. (2017). Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. Toshkent: Fan.
6. Ishmuhamedov, R. J., & Abduqodirov, A. A. (2020). Ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent.
7. Jo‘rayev, B. B. (2022). Matematika o‘qitish metodikasi. Toshkent.
8. Xolmirzayev, X. (2021). Matematika ta’limida zamonaviy pedagogik yondashuvlar. Toshkent.
9. Polya, G. (2004). How to Solve It. Princeton University Press.
10. NCTM. (2014). Principles to Actions: Ensuring Mathematical Success for All. Reston, VA: National Council of Teachers of Mathematics.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.